



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)  
—  
2022



## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>6</b>
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития .....	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati .....	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish .....	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish .....	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>55</b>
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari .....	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида .....	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish .....	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования .....	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида .....	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари .....	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi .....	100
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>105</b>
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari .....	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi.....	124
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR .....</b>	<b>127</b>
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili .....	127

Shaxlo NURULLAYEVA

Qarshi davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
email: [shaxlo\\_nur73@inbox.ru](mailto:shaxlo_nur73@inbox.ru)

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI KASBIY MOSLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni murakkab va serqirra jarayon bo'lib, ushbu jarayon nazariy pedagogik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik hamda o'z ustida ishslash yo'naliishlarida amalga oshiriladi. Pedagogik tayyorgarlik talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashtirishni nazarda tutadi. O'qituvchilarni kasbiy moslashtirish o'zaro bog'liq bo'lgan motivatsion, kasbiy mahoratni shakllantirish, o'z-o'zini anglash va moslashish bosqichlarida kechadi. Ushbu bosqichlarning tavsifi, ularni amalga oshirish shakllari, metodlari hamda ularni amalda qo'llashga e'tibor qaratish lozim bo'lgan talablar, pedagogik shartlar maqolada batafsil bayon etilgan.

Kasbiy moslashuvchanlikning mantiqiy davomi bo'lmiss pedagogik kompetentlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilgan holda maqolada ushbu yo'naliishdagi ishlar malaka oshirish, ilmiy tadqiqotlar, seminar-treninglar, tanlovlardan, o'zaro tajriba almashish va o'z ustida ishslash kabi shakllarda amalga oshirilishi qayd etiladi. Har bir yo'naliishda amalga oshiriladigan ishlar haqida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Talabalarning o'z ustlarida ishslash jarayonlari o'z-o'zini tahlil, o'z-o'zini anglash, o'z ustida ishslash rejasini tuzish, o'z-o'zini rivojlantirish, natijalar tahlili hamda kamchiliklarni barataraf etish kabi bosqichlarda amalga oshirilishi qayd etilgan. Shuningdek, maqolada talabalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar davomida kasbiy moslashuvchanligini amalga oshirishga xizmat qiladigan mashg'ulotlar tizimi keltirilgan. Ushbu mashg'ulotlar davomida foydalaniladigan mashqlar, mikrodarslar, o'yinlar, relaksatsiya mashqlari talabalarning kelajakda pedagogik faoliyati davomida yuzaga keladigan turli vaziyatlar yechimini topishga tayyorlashga yordam beradi. Maqolada ushbu treninglarni amalda qo'llash davomida amal qilinishi lozim bo'lgan prinsipial talablar ham keltirilgan. Ushbu talablarga qat'iy amal qilinishi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarligi sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan nazariy tahlillar, amaliy tavsiyalardan ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar va talabalar foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** talaba, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy moslashuvchanlik, pedagogik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik, o'z ustida ishslash, motivatsiya, refleksiya, relaksatsiya.

Процесс подготовки студентов к педагогической деятельности представляет собой сложный и многогранный процесс, этот процесс осуществляется в направлении теоретической педагогической подготовки, психологической подготовки, методической подготовки и самостоятельной работы. Педагогическая подготовка также подразумевает адаптацию студентов к социально-педагогической деятельности. Профессиональная адаптация педагогов происходит на этапах взаимосвязанной мотивации, формирования профессиональных навыков, самосознания и адаптации. Описание этих этапов, форм их реализации, методов и требований, на которые следует обратить внимание при их практическом применении, педагогические условия подробно описаны в статье.

Уделяя особое внимание развитию педагогической компетентности, которая является логическим продолжением

профессиональной гибкости, в статье отмечается, что работа в этом направлении будет проводиться в таких формах, как повышение квалификации, научные исследования, семинары, конкурсы, обмен опытом и самостоятельная работа. Представлена аналитическая информация о проделанной работе по каждому направлению. Отмечается, что процессы самостоятельной работы студентов будут осуществляться на таких этапах, как самоанализ, самосознание, составление плана самостоятельной работы, саморазвитие, анализ результатов и устранение недостатков.

Также в статье представлена система обучения, которая служит для осуществления профессиональной адаптации студентов на занятиях и во внеурочной деятельности. Упражнения, микроуроки, игры, упражнения на расслабление, которые используются в ходе этих упражнений, помогут подготовить студентов к поиску решений различных

ситуаций, которые могут возникнуть в ходе их будущей педагогической деятельности. В статье также перечислены основные требования, которые необходимо соблюдать при практическом применении этих тренингов. Стогое соблюдение этих требований служит обеспечению качества педагогической, психологической и методической подготовки будущих учителей. Теоретический анализ, практические рекомендации, представленные в статье, могут быть использованы научными исследователями, преподавателями и студентами.

**Ключевые слова:** студент, будущий учитель, профессиональная адаптивность, педагогическая подготовка, психологическая подготовка, методическая подготовка, самостоятельная работа, мотивация, рефлексия, расслабление.

The process of preparing students for pedagogical activity is a complex and multifaceted process, this process is carried out in the direction of theoretical pedagogical training, psychological training, methodological training and independent work. Pedagogical training also implies the adaptation of students to socio-pedagogical activities. Professional adaptation of teachers occurs at the stages of interrelated motivation, formation of professional skills, self-awareness and adaptation. The description of these stages, forms of their implementation, methods and requirements that should be paid attention to in their practical application, pedagogical conditions are described in detail in the article.

Paying special attention to the development of pedagogical competence, which is a logical continuation of professional flexibility, the article notes that work in this direction will be carried out in such forms as professional development, research, seminars, competitions, exchange of experience and independent work. Analytical information on the work done in each direction is presented. It is noted that the processes of independent work of students will be carried out at such stages as introspection, self-awareness, drawing up a plan for independent work, self-development, analysis of results and elimination of shortcomings.

The article also presents a training system that serves to implement the professional adaptation of students in the classroom and in extracurricular activities. Exercises, microdidacts, games, relaxation exercises that are used during these exercises will help prepare students to find solutions to various situations that may arise during their future teaching activities. The article also lists the main requirements that must be observed in the practical application of these trainings. Strict compliance with these requirements serves to

ensure the quality of pedagogical, psychological and methodological training of future teachers. The theoretical analysis and practical recommendations presented in the article can be used by scientific researchers, teachers and students.

**Keywords:** student, future teacher, professional adaptability, pedagogical preparation, psychological preparation, methodical preparation, independent work, motivation, reflection, relaxation.

**Kirish.** Bo'lajak o'qituvchilarni pedagoglik kasbiga ijobiy munosabatni tarbiyalash va kasbiy moslashtirishga qo'yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy moslashuvchanlikni, ijodiy munosabatda bo'lishni shakllantirishning pedagogik-psixologik aspektlarini o'rganish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechadi:

I bosqich – motivatsion bosqich bo'lib, bu bosqichda kasbiy faoliyatga motivasion yo'naltirish ishlari amalga oshiriladi. Shuningdek, kasbiy tasavvurlar shakllantiriladi, kasbiy bilimlar o'zlashtiriladi va kasbiy faoliyat talablarini anglanishi amalga oshadi. Ushbu bosqichda proforiyentatsiya tadbirleri, davra suhbatlari va turli ma'naviy-ma'rifiy ishlar shaklida amalga oshiriladi

II bosqich – kasbiy mahoratni shakllantirish bosqichi. Bu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi: kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish; kasbiy kompetensiyalarni bilish, o'zlashtirish, muloqotga kirishish, kasbiy ijodkorlik; faoliyatga innovasion yondashuvning qaror topishi (maxsus fanlar, pedagogik amaliyot, to'garaklar, ijodiy ishlar, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ta'lim vositasida).

III bosqich - kasbiy o'z-o'zini anglash va moslashish bosqichi. Bu bosqichda kasbiy ko'nikma va malakalarining rivojlanishi; pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatlarning shakllanishi (umumkasbiy va maxsus fanlar, o'quv amaliyoti, mustaqil ta'lim vositasida) holatlarini kuzatish mumkin.

**Metod.** Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar o'qituvchining doimiy ravishda malakasini oshirishni talab etadi, ya'ni, uning kasb-kor darajasini, yoki kasbiy kompetentligini oshirishni talab etadi. Hozirgi jamiyatning asosiy vazifasi – shaxsning faol va perspektivadagi jamiyat va davlatning talablariga javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxsni tayyorlash, jamiyatning sotsial adaptatsiyaga mos qobiliyatga ega kasbiy faoliyatni boshlashga tayyor, o'zining bilimi, ko'nikma va malakasini oshirishga qobiliyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mustaqil fikrlaydigan, faoliyatining natijasini prognozlay

14 biladigan, ma'lumot jarayonini modellashtira oladigan pedagoggina oldiga qo'yilgan maqsadini amalga oshira oladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, raqobatbardosh, hozirgi tinimsiz rivojlanib borayotgan talablarga javob beradigan shaxsni tarbiyalaydigan o'qituvchiga talab oshmoqda.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda pedagogning professional kompetentligini rivojlantirishning asosiy yo'llarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- pedagogik ta'lim yoki kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) jarayonida;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazish natijasida;
- seminar-treninglar yoki uslubiy kengashlarda innovatsion texnologiyalarni o'rganish natijasida;
- o'zaro tajriba-almashinish jarayonida;
- tanlovlardagi ishtirok natijasida;
- o'z ustida mustaqil ishlash jarayonida.

Agar pedagog o'zining shaxsiy kasbiy kompetentligini oshirish zarurligini tushunib yetmasa yuqoridagi ko'rsatilgan vositalarning birortasi samara bermaydi. Shuning uchun ham pedagogik yuksalish motivi va uning amalga oshirilishi uchun mos sharoit yaratilishi zaruriyati kelib chiqadi. Shunday sharoit yaratilishi kerakki, pedagog o'zi mustaqil o'zining kasbiy sifatlarini oshirish zarurligini tushunib yetsin va unga ehtiyoj tug'ilsin. Buning uchun ta'lim muassasasida demokratik muhit yaratilishi lozim. O'qituvchining ijodiy ishlari qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi uni yangi-yangi ishlarga qo'l urishiga, ijodiy izlanishiga turtki bo'ladi.

O'zining shaxsiy pedagogik tajribasini tahlil qilish pedagogning o'z-o'zining kasbiy rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida tadqiqotchilik malakasi rivojlanadi va bu pedagogik faoliyat bilan integrallashadi. Pedagog mifiktabni boshqarish jarayoniga jaib etilishi uning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

Shaxsiy professional sifatlarning rivojlanishi – bu dinamik jarayon bo'lib, kasb sohasidagi tajribalarni o'zlashtirish va modernizatsiyalash, uzlusiz rivojlanish va o'z ustida ishlash jarayonidir.

Kasbiy mahoratni shakllantirishda o'z ustida mustaqil ishlash quyidagi uchta bosqichda amalgalashadi:

- o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini anglashning zarurligi;
- o'z-o'zini rivojlantirish rejasiga ega bo'lish (maqsad, vazifa, uni amalga oshirish yo'llari);
- o'zini ko'rsatish, tahlil qilish va kamchiliklari ustida ishlash.

Kasbiy mahoratning shakllanishi uzlusiz jarayon. Pedagogning kasbiy mahoratini shakllanishi o'z-o'zini anglagan va o'z kasbiy

qobiliyatini rivojlantirish dasturiga ega bo'lib, o'z faoliyatini tahlil qila oladigan, kamchiliklarni tugatish ustida tinimsiz izlanadigan davridan boshlanadi. Chunki pedagogik faoliyat jarayonida tinimsiz o'z kasbiy faoliyat ustida ishlash zarur bo'lib, bu jarayonda bajargan ish turlari ba'zan takrorlanadi, lekin bu takrorlanish aynan bo'lmay pedagogning o'z ustida tinimsiz ishlashi natijasida yangicha shaklda o'zgargan, sifat jihatidan yangilangan shaklda takrorlanadi. Pedagogning o'zini rivojlantirishi, ongli ravishda o'z hayotini tashkil qilishi kasbiga oid faoliyatining taraqqiyotiga sabab bo'ladi. O'z ustida tinimsiz izlanib, kasbi sohasida kamolot cho'qqilarini egallagan o'qituvchigina mamlakatimiz taraqqiyotinining egalarini tarbiyalab yetishtira oladi, ta'lim jarayonini talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltira oladi. Talabalarda shakllangan kompetensiyalar esa ularning o'z hayot yo'llarini to'g'ri tanlashiga asos bo'ladi.

**Natijalar.** Pedagogik mahoratni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – bo'lajak o'qituvchilar va o'qituvchilarning to'plagan ma'lumotlari, nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarini kelajakdag'i pedagogik faoliyatlarida samarali qo'llay olishga qaratilgan ta'lim turidir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etiladigan pedagogik ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil va tanqidiy tafakkur yurita olish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, mas'uliyatlilik, virtual materiallardan va AKTdan o'z pedagogik jarayonda samarali va oqilona foydalana olish, kasb-hunarni tanlashga va egallahga nisbatan motivatsiyani, sog'lom muhit, tashabbuskorlik, madaniyat va yuksak ma'naviyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Talaba pedagogik bilim olish jarayonida shaxsiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik muloqotga kirishishi, jamiyatda o'z o'rniiga ega bo'lishi, pedagogik vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarning yechimini topa bilishi, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun ularga tayanch bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashtirish jarayonida fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid kompetensiyalari shakllantiriladi.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo, o'zini atroficha chuqr o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishilarni anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglashi, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabati jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Eng avvalo, o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak. Pedagogik faoliyatga muhabbat qo'ygan

o‘qituvchi ishga chin ko‘ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo‘l qo‘ymaydi. O‘z kasbini sevgan o‘qituvchi doimiy ravishda g‘oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o‘z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘z ustida ishslash, o‘z-o‘zini tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalanadi.

1. O‘z-o‘zini bilish:

- a) o‘zini kuzatish;
- b) o‘z harakatlarni tahlil etish;
- d) o‘z-o‘zini sinash;
- e) o‘rtoqlarining fikrini tushuna olish.

2. O‘ziga baho berish:

- a) o‘z-o‘zini tanqid qilish;
- b) o‘ziga tavsif berish;
- d) o‘z-o‘zini taqdirlash.

O‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O‘z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini muhokama qilishga o‘rgatadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O‘z-o‘zini baholash o‘qituvchiga o‘z imkoniyatlarini baholashga, o‘zidan qoniqish hosil qilishga yordam beradi.

**Muhokama.** O‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan birga o‘z ustida tinmay ishlab, o‘zining g‘oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o‘sirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi. O‘qituvchi o‘zining butun kuch-qudratini, imkoniyati, o‘zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o‘z talabalariga, xalqqa beradi. Shu bilan birga o‘z bilimi, tajribasi, imkoniyatlari va saviyasini to‘ldirib borishi ham kerak. O‘qituvchi, bir tomonidan, o‘zida borini beradi, ikkinchi tomonidan, o‘ziga xalqdan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va o‘zlashtirgan hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi.

O‘qituvchilar uchun amalga oshirilayotgan pedagogik ta’lim va malaka oshirish mashg‘ulotlarida yoki o‘z ustida ishslash jarayonida kasbiy kompetentligini oshirishga yordam beradi.

Pedagogik mahoratning shakllanishi quyidagi darajalarda aniqlanadi:

- reproduktiv daraja;
- kognitiv daraja;
- ijodiy daraja;
- ijodiy-novator darajasi.

Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy moslashuvchanlik jarayoni samarali tashkil etishga xizmat qiladigan o‘yinlar, mashqlar, topshiriqlar, mikrodarslardan iborat treninglar ishlab chiqildi. Quyida ushbu mashqlardan namunalar keltiramiz.

**O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatini 15 shakllantirishga doir mashqlar:**

**1-mashq.** Bu mashqni ikki kishi bajaradi: 1-talaba “O‘qituvchi” vazifasini bajaradi, 2-talaba topshiriqni o‘qib turadi. “O‘qituvchi” talaba topshiriq talabiga binoan yuz ifodasini o‘zgartiradi va talabalarga ta’sir o‘tkazishga harakat qiladi.

**1-topshiriq:** siz doskaga yozyapsiz. Talabalar siz bilan baravar daftarga yozishlari lozim. To‘satdan shovqin ko‘tarildi. Siz o‘girilasiz va munosabatingiz:

- a) “Nima bo‘ldi?”;
- b) “Kim yana hunar ko‘rsatayapti?”;
- d) “Bas qiling! Yozishni davom etamiz!”;
- e) “Tinchlanishingizni kutyapman”;
- f) “Sekin! Hamma ish qilayotganda shovqin qilish mumkin emas”.

**2-topshiriq:** Talaba doska oldida. Topshiriqni bajardi. Sizning munosabatingiz:

- a) sokinsiz – “hammasi to‘g‘ri”;
- b) xursandsiz – “yasha!”;
- d) muhokama qilasiz – “hammasi to‘g‘ri ekanligiga ishonching komilmil?”;
- e) xafa bo‘lasiz – “butunlay xato”;
- f) qattiq ogohlantirasiz – “yana noto‘g‘ri”,
- g) kutilmagan yutuq – “ajoyib!”.

**2-mashq. Pedagogik masala.**

**1-vaziyat.** O‘qituvchi dars yakunida talabalarning ballarini e‘lon qildi. Talabalarning 3 nafari “a‘lo”, 4 nafari “yaxshi” va 2 nafari «qoniqarli» baholandi. Shunda “qoniqarli” baholangan Alibekning kayfiyati tushib ketdi. Chunki u doimo “a‘lo” baholar bilan o‘qir edi. Aksincha, doim “qoniqarli” baho bilan o‘qigan Nodirbekning “a‘lo” baho olgani uchun kayfiyati juda yuqori. Shunda o‘qituvchi Alibekning yonidagi o‘rtog‘iga “Nodirbekning onasi ham o‘qituvchi bo‘lganligi uchun ustoz unga «a‘lo» baho qo‘ydilar” degan gapini eshitib qoldi.

**Topshiriq:**

- a) vaziyatni baholang;
- b) o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi kerakligini ayting;
- d) o‘qituvchi qayerda xatoga yo‘l qo‘yan?
- e) jamoadagi muhit o‘zaro munosabatlarni qanday baholaysiz?

**3-mashq. O‘qituvchining talabalarga ta’sirini o‘rganish mashqi.** Bu mashqda topshiriq mazmuni auditoriyaga notanish bo‘lsa ishslash oson bo‘ladi. O‘qituvchi topshiriqlarni alohida qog‘ozlarga yozib tarqatadi va tayyorlanish uchun vaqt beradi. Talabalar navbat bilan topshiriqlarni bajaradilar. Boshqalar mimikani o‘qiydilar.

**1-topshiriq.** Sinfga kirdingiz. Talabalarning darsga tayyorgarligidan xursandsiz.

**2-topshiriq.** Sinfga kirdingiz. Sinf tartibsiz. Siz hayratdasiz.

**16** 3- *topshiriq*. Sinfga kirdingiz. Talabalar berilgan topshiriqnini yaxshi bajarganlar. Siz ularga shunday deysiz...

4-*topshiriq* Sinfga kirdingiz. Talabalar juda yomon ish qilganlardan xabardorsiz.

5-*topshiriq*. Siz qator oralab yurib talabalar qanday ishlayotganlarini kuzatyapsiz. Ular yaxshi ishlayapti.

6-*topshiriq*. Qator oralab yuribsiz. Maqsadingiz talabalar qanday ishlayotganini nazorat qilish.

7- *topshiriq*. Qator oralab yuripsiz. Talabalardan biri boshqa kunga qaraganda yaxshi ishlayapti. O‘zi sezgan holda ta’kidlab o‘ting.

8-*topshiriq*. Qator oralab yuribsiz. Talabalar qiyinchiлик mavjud, hayrat bilan qaraysiz.

**4-mashq. “Ilgak” mashqi.** Bu mashqni ham talabalar o‘qituvchi bilan birlashtirishda bajaradilar. O‘qituvchi o‘rgatib turadi, talabalar topshiriqnini bajaradilar: “Yelkalarimizni oldinga engashtiramiz, yelka va bel muskullarini bo‘shashtiramiz. Endi paltoni ilgakka ilgan kabi gavdimizni ko‘taramiz, orqaga tashlab umurtqamizga kiydiramiz.

Yelkalarimiz baquvvat bo‘ldi. Qo‘l, bo‘yin, yelka erkin va yengil bo‘ldi”. (3-4 marta takrorlanadi).

#### **5-mashq. O‘rindan to‘g‘ri turish mashqi.**

1-bosqich: talabalardan 3-4 nafari navbat bilshan “O‘qituvchi” rolini bajaradi va o‘tirgan o‘rnidan to‘g‘ri turishni mashq qiladilar. Stuldan turayotganda tayanch nuqta to‘g‘ri tanlanishi, tovushsiz va chiroyli harakatga e’tibor qaratiladi.

2-bosqich: qarama-qarshi stolda o‘tirgan talabalar o‘rinlarini almashadilar. Boshqa talabalar ular harakatini tahlil qiladilar.

Mashq natijalarini tahlil qilishda harakatning maqsadga muvofiqligi, shovqinsiz harakat qilinishiga, muskullarga ortiqcha og‘irlik tushirmslikka, gavdani tik tuta olishlariga e’tibor beriladi.

Har bir o‘qituvchi o‘z psixologik holatini boshqara olishi, o‘zida ijodkorlik his-tuyg‘ularini yuzaga keltira olishi lozim.

#### **6-mashq. Darsni boshlash va tashkiliy qismni o‘tkazish.**

Talabalarning 3-4 nafari mutaxassislik bo‘yicha biror bir fan bo‘yicha darsning tashkiliy qismini o‘tkazadilar. Boshqa talabalar vazifasida ishtirot etadilar. Darsni boshlash va tashkiliy qismni o‘tkazish uchun 3-4 minut vaqt ajratiladi. Tinglovchi talabalar va o‘qituvchi ekspert sifatida bajaruvchi talabalarning faoliyatlarini baholaydilar va quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- sinfga kirish va salomlashishning to‘g‘ri bajarilganligi;
- talabalar diqqatini jalb eta olish;
- sinf xonasining darsga tayyorgarligi;
- talabalarning darsga tayyorgarlik darajalari;

• so‘rov vaqtida barcha talabalarning diqqatini jalb eta olish;

• tashkiliy qismni o‘tkazishda so‘rovning ob-havo va sana bilan bog‘liqligi.

#### **Fonatsion nafasni rivojlantirishga doir mashqlar.**

**7-mashq. “Dengiz bo‘yida”.** O‘qituvchi talabalarga aytilib turib ular bilan birlashtirishda mashqni bajaradi. Mashq samarali o‘tishi uchun o‘qituvchi bir maromda gapirib turishi lozim va biror bir musiqa jo‘rligida ham mashqni bajarish mumkin.

«Yelkalarni bo‘sish qo‘yamiz va sekingina, bir tekis burnimizdan nafas olamiz. Olinadigan nafas avval o‘pkaning eng quyisi qismlari to‘lishiga, so‘ng esa yuqori qismlari to‘lishiga ahamiyat berish kerak. Yelka harakatsiz qoladi. Ammo qorin muskullari va qovurg‘alararo muskullar faol ishlatiladi».

**8-mashq. “Gulzorda”.** Bu mashq ham musiqa jo‘rligida va o‘qituvchining tushuntirishi bo‘yicha amalga oshiriladi. «Tik holda turamiz. Chap qo‘limizni nazorat uchun qoringa, o‘ng qo‘lni qovurg‘aga qo‘yamiz: «puffff» deb nafas chiqaramiz. Bunda qorin muskullari qisqaradi. Keyin xuddi gul hidlagandek tasavvur qilib nafas olamiz. Bunda qorin oldinga chiqadi, qovurg‘a kengayadi. Nafas olishni qorinning keskin harakati bilan to‘xtatiladi, qorinning pastki qismi qisqaradi. Bundan so‘ng sekin va bir tekis nafas olib qorin va qovurg‘ani kengaytiramiz. Qisqa nafas olasiz va cho‘ziq nafas chiqariz. (2-3 marta).

**9-mashq. “Sham”.** O‘qituvchi va talabalar barchasi qo‘lida piligi yoqilgan shamni yuzidan 25-30 sm uzoqligidagi ushlab turishadi va o‘qituvchi tushuntirib turishi bo‘yicha mashq amalga oshiriladi.

“Shamni bir tekis ushlab turib unga qarab uzoq vaqt puflaymiz. Agarda olov bizdan bir tekisda uzoqlashib tursa, demak, biz bir tekis nafas chiqaryapmiz”. Bu mashq nafas chiqarishning bir tekis va uzlusiz bo‘lishini ta’minkaydi. Agar nafas bir tekis va uzlusiz bo‘lsa olov bir xilda qiyshaygan holda turadi. Agar nafas notebris chiqarilsa, sham piligi ham notebris harakt qiladi.

#### **Nutq madaniyatini rivojlantirishga doir mashqlar.**

#### **10-mashq. So‘zlarning sinonimlarini topish mashqi.**

**1-bosqich:** o‘qituvchi topshiriq shartini, ya’ni ko‘rsatiladigan so‘zlarga ko‘proq sinonimlar topishni tushuntiradi.

**2-bosqich:** Shundan so‘ng quyidagi so‘zlar qatori elektron doskada ko‘rsatiladi:

*dedi*, ... (masalan, *aytdi*, *so‘zlatdi*, *gapirdi*, *tushuntirdi* va h.k.)

*berdi*, ... (masalan, *topshirdi*, *uzatdi*, *sovga* ‘a *qildi*, *tuhfa etdi*, va h.k.)

*gildi*, ... (masalan, *bajardi*, *tayyorladi*, va h.k.)

**ustoz**, ... (masalan, *murabbiy*, *o'qituvchi*, *ta'lif beruvchi*, *o'rgatuvchi*, va h.k.)

**3-bosqich:** topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. O'qituvchi har bir so'zni alohida tahlil qiladi. Har bir so'z bo'yicha ko'proq va to'g'ri sinonim topgan talaba baholanadi.

**11- mashq. Nutq ohang mashqi.** (2-3 talaba bajaradi).

**1-bosqich:** o'qituvchi talabalar e'tiboriga bir nechta gapni havola etadi:

**"Barchangiz bu yerga qarang!"**

**"Atrofingizga qarang!"**

**"Darslikni oching!"**

**"O'rningizdan turing!"**

Talabalardan bu gaplarni turli ohanglarda aytish talab etiladi.

**2-bosqich:** talabchan ohangda;

**3-bosqich:** sokin ohangda;

**4-bosqich:** jahl bilan;

**5-bosqich:** harakatga undash ohangida;

**6-bosqich:** hayrat bilan.

Mashq davomida talabalarning tovushlarini nutq mazmuniga mos holda o'zgartira olishlariga hamda nutqning ta'sirli, obrazli va tabiiy chiqishiga qarab baholanadi.

**12- mashq. Nutq ohanggi mashqi.** (2-3 talaba bajaradi).

**1-bosqich:** o'qituvchi talabalar e'tiboriga bir nechta gapni havola etadi:

**"Sinfimiz musoboqada 1-o'rinni egalladi"**

**"O'zlashtirish bo'yicha siz 1- o'rindasiz"**

**"Mashqni siz a'lo darajada uddaladingiz"**

Talabalardan bu gaplarni turli ohanglarda aytish talab etiladi.

**2-bosqich:** xursandchilik bilan;

**3-bosqich:** quruq ohangda;

**4-bosqich:** yumshoq ohangda;

**5-bosqich:** do'stona ohangda;

**6-bosqich:** quvnoqlik bilan aytинг.

**13- mashq. Suratga qarab hikoya tuzish.**

"Kunlardan bir kuni..." deb hikoya boshlaydi o'qituvchi. Talabalardan biri suratga qarab hikoyani davom ettirib bitta gap tuzadi. Ikkinci talaba yana bir gap tuzadi. Uchinchi talaba davom etadi va h.k.

Bu mashqni bajarishda talabalarning so'z boyligi va har bir so'zni o'rinli foydalana olishiga, ijodkorligiga baho beriladi.

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarining tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga umumlashtirishga harakat qiladi.

**14-mikrodars. O'quvchilar bilan bo'ladigan turli muammoli vaziyatlarni hal etish.** O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirish faoliyati davomida «Agarda...» holatini yuzaga keltirishga doir mashqlar.

O'qituvchi quyidagi muammoli vaziyatni o'qiydi. Talabalar navbat bilan vaziyat ishtirokchilari o'rnida turib o'z nuqtayi nazarini bildiradilar.

**1-masala:** O'qituvchi sinfga kirib keldi. Barcha o'quvchilar o'z o'rnida o'tirishibdi. Hamma jim. Ammo ular o'rinalardan turishmadi. Chunki o'tgan kuni o'qituvchi o'quvchilarga sayohatga chiqish uchun ruxsat bermagan edi. O'quvchilar o'qituvchiga nisbatan "isyon ko'tarishgan".

Savol: "Agarda siz o'qituvchining o'rnida bo'lsangiz nima qilar edingiz?", "Agarda, siz o'quvchilardan birining o'rnida bo'lsangiz, nima qilar edingiz?"

**2-masala:** Sinfdag'i a'lochi va faol o'quvchilardan birini o'qituvchi doim maqtagini va namuna qilib ko'rsatavergani o'quvchilarning g'ashiga tegdi. Va ular bu o'quvchini ajratib qo'yishdi va hech kim gaplashmay qo'ydi.

Savol: "Agarda, siz o'qituvchining o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?"

"Agarda, siz a'lochi o'quvchi o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?"

"Agarda, siz o'quvchilardan birining o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?"

**3-masala:** Sinfdag'i ikki bola urushib qoldi va ulardan biri ikkinchisiga tarsaki tushirdi. Har ikkala o'quvchi ham o'zicha haq. Ertasi kuni o'quvchilarning onalari ham maktabga tashrif buyurib o'qituvchiga norozilik bildira boshladilar.

Savol: "Agarda, siz o'qituvchi bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?"

"Agarda, siz o'quvchilardan biri bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?"

"Agarda, siz onalardan biri bo'lsangiz, qanday yo'l tutasiz?"

**15-Mikrodars. "Tozalik kuni".**

Sinf xonasi. Bugun - tozalik kuni. Talabalar o'quvchilar rolini bajaradilar. Ularning yoshini siz belgilaysiz. O'quvchilarni ishga qiziqtira olish, o'quvchilarga ishni taqsimlay bilish, ishni tashkil eta olish, mehnat jarayonida o'z-o'zini boshqarishga o'rgata olish, o'zin harakatlaridan foydalanish, nutqdan to'g'ri foydalanish kabilar tahlil qilinadi.

**Xulosa.** O'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, izlanishi, o'zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirishga harakat qilishi lozim. Ana shundagina uning tajribasi, obro'si, jamiyatdagi mavqeyi ham yuksak bo'ladi, jamoasi va shogirdlari oldida o'z o'rniga ega bo'ladi. O'qituvchida o'z-o'ziga talabchanlik, kuzatuvchanlik, obyektiv yondashuv, tanqidiy tahlilni tarkib toptirish lozim. Uning mustaqil tajriba oshirishi, bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Zero, o'qituvchi o'zi o'qib, bilimlarni chuqr egallasagina, boshqalarga ham o'rgata oladi. Agarda u izlanishni

**18** to‘xtatib qo‘ysa, uning o‘qituvchilik faoliyati samarasi ham pasayib boradi.

O‘z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli tashkil etilishi nazarda tutiladi.

Pedagogning o‘z ustida ishlashi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

#### **Adabiyotlar**

1. Nurullaeva Sh. Emotional stability as one of the professional qualities of teachers. Science and world International scientific journal. № 7 (47), 2017, Vol. II. Page 64-65.
2. Nurullaeva Sh., Ziyodullayeva Z. Differentiation of pupils of primary classes depending on intellectual abilities. Science and world International scientific journal. № 3 (67), 2019, Vol. III. Page 39-40.
3. Nurullaeva Sh. Concept and model of the teacher self-development process in a virtual environment. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 6, June 2021. P. 428-434.
4. Nurullaeva Sh., Rasulova H. The importance of game in children's socialization. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 6, June 2021. P. 227-233.
5. Yarmanova Y.B. Psychological mechanisms of the formation of collective relations in preschool children // “Débats scientifiques et orientations prospectives du développement scientifique” 5 Février 2021 • Paris, République Française. – P. 160-162.
6. Ярманова Ю.Б., Орипова Н. Проблема и перспектива воспитания детей дошкольного возраста в интересах всего общества // наука и мир. Международный научный журнал, № 4 (68), 2019, Том 2 ISSN 2308-4804. Science and world. – С. 48-49.
7. Нуруллаева Ш. Педагогик фаолиятда ўз устида ишлаш ва меҳнатни илмий ташкил этиш – самарадорлик омили // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. №3. 2021. 136-145-бетлар.